

SHAXRISABZ SHAHRI SHAROITIDA *BUDDLEJA DAVIDII* FRANCH. NAVLARINING GULLASH FENOLOGIYASI

A.L.Raximov, Q. Qayumova

Qarshi davlat universiteti. Qarshi. O‘zbekiston.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shahrisabz shahri sharoitida *Buddleja davidii* Franch. navlarining gullash fenologiyasi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *Buddleja davidii* Franch., nav, generativ, g‘uncha, gullash, meva, urug‘, *Introduksiya*.

O‘simliklarning generativ fazaga o‘tishi uning yangi sharoitga moslashganligi darajasini muhim ko‘rsatkichlardan biridir [1; 279-b.].

O‘simliklarning yangi sharoitda meva va urug‘ hosil qilishi ularning bu yerda yaxshi moslashganligini belgilovchi omillardan biridir, chunki bu o‘simlikning hayot faoliyatining asosiy natijasi hisoblanadi. Yangi sharoitga genetik jihatdan moslashish urug‘dan ko‘paygan o‘simlikning keyingi avlodida mustahkamlanadi, bu o‘z navbatida tanlash uchun keng imkoniyat beradi [2; 520-b.].

O‘simlikning virginil davrdan generativ davrga o‘tishi turli mualliflar tomonidan turlicha baholangan. Xususan, introdusentlarning keyingi avlodida ular generativ davrga ertaroq kiradi va kelgusi yillarda bo‘liq gullab, urug‘ hosil qiladi [3; 157-b.],

Gullari mayda, diametri 1,5 sm keladi, oq, siren yoki to‘q-siyoh ranglarda, to‘pgullari uzun novdalarining uchidagi yirik shingillarda joylashgan.

Gulbarglarining juda chiroyli shakli va rangi uchun qadrlanadi. Ayniqsa, oftob joylarda, yumshatilgan unumdor, neytral tuproqlarda yaxshi o‘sadi va gullaydi, shuningdek yarim soya joylarda ozuqaviy moddalar yetarli tuproqlarda ham yaxshi o‘sadi.

Buddleja davidii Franch. gullash davri iyun oyidan kuzgacha davom etadi. Lekin urug' hosil qilmaydi. Ko'plab forma va navlari mavjud. Ular bir-biridan tupining shakli, rangi va to'pgullarining o'lchamlari bilan farq qiladi. Bular orasida och-krem yoki qizil, oq va purpur, nafis pushti yoki yorqin siyoh ranglari uchraydi. Eng keng tarqalgan navlari:

- Yapon buddleyasi (*B. japonica*) – bo'yi 3 m ga yetadigan tez o'suvchi buta. Guruhlab va alohida ekiladi;
- Oqgulli buddleya (*B. albiflora*) – tik o'sadigan, to'pgullari konussimon shaklda, gullari oqish-siren yoki oq rangda;
- **Qor buddleyasi** (*B. nivea*) – bargi, novdasi va to'pguli oq rangdagi qalin tuklar bilan qoplangan;
- **Sharsimon buddleya** (*B. globosa*) – yorqin sariq rangdagi to'pgullari kuchli aromatga ega, issiq o'lkalarda tarqalgan;
- **Navbatma-navbat bargli buddleya** (*B. alternifolia*) – quruq va ochiq joylarda o'sadi. Gullari liliya rangida.

Shahrisabz sharoitida Buddleyaning navlari 2022 yil 28 maydan boshlab oktabr oyining uchunchi dekadasigacha gullagani kuzatildi. Gullari nektga boy bo'ganligi uchun kapalaklarni, asalarlarni, kolibrilarni jalb etadi.

Jadval

Shahrisabz shahri sharoitida Buddleyaning navlarining gullash fenologiyasi (2022 y)

Buddleyana vlari	G'unchalash muddati	Gullash davri			
		Boshlanishi	Yoppasiga	Tugashi	davomiyligi, kun
Buddleya alternifolia	3.05	28.05	5.06	29.10	154
Buddleya globosa	4.05	3.06	11.06	28.10	147
Buddleya albiflora	6.05	3.06	11.06	28.10	147
Buddleya japonika	4.05	2.06	10.06	29.10	147

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki Shahrizabz sharoitida Buddleyaning navlari uzoq muddat, 150 kun atrofida gullab turadi.

Introduksiya qilingan o‘simliklar yangi sharoitga tushganda moslashish strategiyasining turli yo‘llarni axtaradi. Agarda ularning ekologik diapoziti shu konkret sharoitga mos tushsa ular gullab, meva berib urug‘ hosil qiladi.

Turning navlari 2014-2015 yillardan introduksiya qilina boshlangan bo‘lsada bizning sharoitimizda urug‘ hosil qilmadi.

Introduksiya qilingan o‘simliklarning qiymatini gullarning sifati, manzaralilik darajasi, sanitar-gigiyenik, biologik xususiyatlari bilan birga ekologik omillarga bardoshlilik ham belgilaydi. Shu sababli *Buddleja davidii* Franch. ning navlari Shahrizab shahri sharoitida gullash istiqboli yuqori.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nekrasov V.I. Osnovi semenovedeniya drevesnix rasteniy pri introduksii. M.: Nauka. 1973. - 279 s
2. Sarev A.P. Seleksiya i reproduksiya lesnix drevesnix porod //A.P. Sarev, S.P. Pogiba, V.V.Trenin. –M.: Logos, 2002. -520 s
3. Petrova I.P. Introduksiya drevesnix rasteniy Sredney Aziya v Moskve. M.: Nauka, 1978. - 157 s.